

DAVLAT XARIDLARIDA KARTEL KELISHUVLARINI ANIQLASHNING AYRIM MUAMMOLARI

Abdusherozov Abdurasul Baxtiyorovich

e-pochta: abdurasulabdusherozov@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11104277>

Annotatsiya

Mazkur maqolada Davlat xaridlarida kartel kelishuvlarini aniqlashning ayrim usullari va amaliyotda vujudga kelayotgan ayrim muammolari haqida fikr yuritilib, bunday kelishuvlarni oldini olish bo'yicha data-skriningni qo'llash bo'yicha taklif ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: davlat xaridi, raqobatsiz xarid, kartel kelishuvlari.

Kartellar bozorlarning samarali faoliyatiga tahdid soladi. Ularning faoliyati soliq to'lovchilar va iste'molchilardan yiliga bir necha trln so'mlarni tortib oladigan o'g'irlikning makkor shaklidir. Ular raqobat illyuziyasini yaratadilar, shu bilan birga narxlarini oshiradilar. Bozorlarni nazorat qilish uchun til biriktirib, kartellar o'zlarining samarasiz a'zolarini himoya qiladi va mukofotlaydi, shu bilan birga halol, innovatsion va yaxshi boshqariladigan kompaniyalarni jazolaydi.

Kartellar uzoq vaqtdan beri katta byudjetlar va biznes faoliyatining o'ziga xos xususiyati tufayli davlat sektori xaridlarini jozibador maqsad deb bilishgan.

Davlat xaridlarining yaxlitligini himoya qiluvchi omillarning o'zi ham raqobatga putur yetkazmoqchi bo'lganlar uchun imkoniyat yaratadi.

Davlat xarajatlarining shaffofligi va hisobdorligi kartellarga o'zlarining kelishuvlarini tashkil qilish uchun zarur bo'lgan ko'p ma'lumotlarni beradi.

Davlat xaridlari kartellar uchun oson maqsad bo'lishi mumkin. Xususiylashgan tashkilotlar xarid strategiyasini tanlashda moslashuvchan bo'lishi mumkin bo'lsa-da, hukumat odatda qonunchilik va batafsil ma'muriy qoidalar bilan cheklanadi. Davlat organlarining hisobdorligi jarayonlarning shaffofligini va axborotni oshkor qilishni talab qiladi. Ajablanarlisi shundaki, xuddi shu javobgarlik va oshkor qilish talablari til biriktiruvchilarga kartelni yaratish, saqlash va qo'llash uchun zarur bo'lgan kerakli ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin.

"Raqobat to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, eng yaxshi takliflarning tanlovlarida, tenderlarda, auksionlarda va boshqa savdolarida raqobatni cheklaydigan yoki cheklashga olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar, shu jumladan quyidagilar taqiqlanadi:

savdolarida ishtirok etish uchun xo'jalik yurituvchi subyektlardan hujjatlar qabul qilishni asossiz ravishda rad etish yoki savdolarida ishtirok etish uchun hujjatlarni taqdim etishga to'sqinlik qilish;

savdolar ishtirokchilarini asossiz ravishda chetlashtirish yoki ularning sonini asossiz ravishda cheklash;

savdolar predmetiga texnologik va funksional jihatdan aloqador bo'lmagan qo'shimcha tovarlarni lotlar tarkibiga kiritish;

tovarning aniq ishlab chiqaruvchisini ko'rsatish, bundan tovarlarning bir-biriga to'g'ri kelmasligi hollari va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollar mustasno;

boshqa ishtirokchi g'olibga aylanishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida savdolarida takliflar bilan ishtirok etish;

savdolar ishtirokchilariga asossiz talablar qo'yish, shu jumladan ularning malakasiga nisbatan raqobatni cheklaydigan yoki cheklashga olib kelishi mumkin bo'lgan talablar qo'yish;
savdolar predmetining narxlarini takliflar kiritish yo'li bilan, savdolar tugaguniga qadar ushbu takliflarni olib tashlagan holda oshirish yoki pasaytirish;
savdolarida ayni bir lotda faqat affillangan shaxslarning yoki o'zaro manfaatdor shaxslarning ishtirok etishi;

savdolarning operatorlari va (yoki) buyurtmachilari va (yoki) tashkilotchilari va (yoki) komissiya a'zolari bilan o'zaro manfaatdor bo'lgan yoxud ular bilan affillangan shaxslarning savdolarida ishtirok etishi.

Raqobatni cheklashga qarshi talablarning buzilishi savdolar natijalari bo'yicha qabul qilingan qarorlarni va tuzilgan shartnomalarni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo'ladi.

Mamlakat bozorlaridagi kartellar soni to'g'risida ma'lumot yo'q, ammo hech kim bizda kartellar yo'qligini istisno eta olmaydi. Monopoliyaga qarshi qo'mitaning statistik ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda kartel kelishuvlari deyarli fosh etilmagan. Taqqoslash uchun ko'shni davlatlarda: Rossiyada 2019 yilda kartellar bo'yicha 424 ta ish qo'zg'atilgan, ulardan 372 tasi tender savdolariga tegishli, Qozog'istonda 2018 yilda – 56 ta kartel kelishuvlari bo'yicha ish qo'zg'atilgan.¹

Kartel kelishuvlarni aniqlashda quyidagi belgilarga ahamiyat qaratish lozim bo'ladi: tadbirkorlar tenderlarda g'olib chiqishda navbatma-navbat qatnashayotganga o'xshaydi yoki shartnomalarni qiymati bo'yicha baham ko'rayotganga o'xshaydi.

Muntazam yetkazib beruvchilar hech qanday sababsiz tenderdan bosh tortadilar.

Tender ishtirokchilari o'zlarining tender takliflariga ataylab qabul qilib bo'lmaydigan shartlarni kiritadi.

Tender ishtirokchilari bir xil turdagi ta'minot bo'yicha ba'zan past, ba'zan esa yuqori narx taklif qiladilar.

Tender ishtirokchilari tender yakunlanishidan oldin o'zaro uchrashganliklari haqida xabar qo'lga kiritilishi mumkin.

G'olib firma muntazam ravishda yuqoriroq takliflarni taqdim etgan raqobatchilar bilan subpudrat tuzadi.

Bir professional maslahatchilar (bugalterlar, yuristlar bo'lishi mumkin) firmasi bir nechta tender ishtirokchilarining vakili bo'ladi.

Raqobat qo'mitasi tomonidan aniq keyslar ochiq ma'lumotlar sifatida taqdim etilmagan. Shu bois. Chilida bo'lib o'tgan keysni tahlil qilamiz. 2020-yil 27-yanvarda Chili Oliy sudi 2018-yilda Raqobat bo'yicha Milliy tribunal tomonidan chiqarilgan hukmni tasdiqladi. Unga ko'ra uchta mahalliy farmatsevtika laboratoriyasi; Biosano, Fresenius Kabi va Sanderson ampulalar nomi bilan ham tanilgan umumiy ineksiya vositalari bozorida kartel kelishuvi orqali tenderlarni soxtalashtirish bo'yicha kelishuvga kirishishda aybdor deb topildi. Tribunal kompaniyalarni 1999-yildan 2013-yilning birinchi semestriga qadar raqobatga qarshi xatti-harakatlar qilganligini aniqladi.

Shartnoma amalda bo'lgan davrda kompaniyalar rahbarlari uchrashuvlar o'tkazdilar. Unda ular o'z kompaniyalarining ichki hujjatlarini almashdilar va dori vositalarini sotib olish va tarqatish bo'yicha eng dolzarb tenderlarni belgilab oldilar. Uchrashuvlarda ular g'olib bo'lgan kompaniya

¹ <https://www.gazeta.uz/oz/2021/05/16/cartel-agreement/>

taqdim etadigan taklifni va ba'zi hollarda yutqazgan kompaniyalar taqdim etadigan taklif belgilangan hujjatlarni to'ldirishadi.

Sud ma'lumotlariga ko'ra, kelishuv 1200 dan ortiq tenderlarda 93 xil mahsulotni qamrab olgan. Kartelning so'nggi uchrashuvi 2013-yil fevral oyida bo'lib o'tgan va o'sha yilning aprel oyida rasmiy tergov boshlangan, natijada kompaniyalar sudlangan.

Sud atigi 1200 ta tenderni tahlil qilgan bo'lsa ham, ayblanuvchi firmalar kartel davrida ushbu 93 ta dori uchun ko'proq tenderlarda raqobatlashdi. Sud qarorga faqat qayd etilgan dalillar topilganlarni kiritishga qaror qildi.

Bundan tashqari, kartel kelishuvlarining boshqa ko'rinishlari haqida X.Rajabov o'z maqolasida tahlil qilgan. Jumladan, unga ko'ra kartel kelishuvlarining "Uch mushketyor", "Navbatli g'oliblik", "Passiv ishtirok" kabi turlarini keng tarqalgan bo'lib, ularning oldini olish uchun data-skrining imkoniyatlarini qo'llash taklif etilgan.²

Data skrining malumotlariga asoslangan aniqlash usuli tergovni ochish uchun yetarli darajada shubha yaratish uchun ishonchli ma'lumotlarni berishi mumkin. Bundan tashqari, oddiy tahliliy ma'lumotlar qisman til biriktirish kabi aniqlanishi murakkabroq bo'lgan qonun buzilishlarini fosh etilishiga turtki berishi mumkin.

References:

1. O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021-yildagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.09.2018-yildagi "O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3953-son qarori.
3. Dr. Husain Radjapov "Bid rigging in uzbekistan: collusive schemes in public procurement and their signs for detection"
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.05.2022 yildagi "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 276-son qarori.
5. Sh.Muhamedova "Davlat xaridlarini amalga oshirishning huquqiy asoslari" Science and Education Scientific journal/ January 2023.
6. lex.uz
7. imv.uz
8. minjust.uz
9. gazeta.uz
10. <https://lex.uz/uz/docs/-6518381>

² Dr. Husain Radjapov BID RIGGING IN UZBEKISTAN: COLLUSIVE SCHEMES IN PUBLIC PROCUREMENT AND THEIR SIGNS FOR DETECTION